



Madina JURAYEVA^a

^aResearch Fellow

Imam Maturidi International Scientific Research Center

Qorasaroy Str. 47, Tashkent, 100002, Uzbekistan

E-mail: m.joraeva@iiaa.uz

«AT-TABAQOT AS-SANIYA»NING MARKAZIY OSIYOLIK OLIMLAR BIOGRAFIYASINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola Taqiyuddin Hanafiyning «at-Tabaqot as-saniya fi tarojim al-hanafiya» asarining Markaziy osiyolik faqihlar biografiyasini o'rganishdagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan.

Markaziy Osiyo, xususan, Movarounnahr hududida islom dinining yoyilishi nafaqat diniy, balki ijtimoiy-huquqiy hayotda ham tub burilish yasadi. Mazkur jarayonda mahalliy urf-odatlar va umummantiqiy qoidalar asosida shakllangan o'ziga xos fiqh maktablari vujudga keldi.

Maqolada Buxoro, Samarqand va Nasafkabi ilmiy markazlarning hanafiy mazhabi rivojida o'rni, u yerda faoliyat yuritgan olimlarning ilmiy merosi alohida yoritilgan. Shuningdek, «at-Tabaqot as-saniya» asarining manbaviy asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Muallif Taqiyuddin Hanafiy o'z asarini yaratishda tayangan ikki asosiy yo'nalish – og'zaki rivoyatlar va yozma manbalar atroficha ko'rib chiqiladi. Xususan, Abdulqodir Qurashiyning «al-Javohir al-muziya» va Abu Sa'd Somoniyning «Kitob al-ansob» asarlarining ushbu manba shakllanishidagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolaning asosiy qismida Buxoro faqihlarining usul al-fiqh va furu' al-fiqh yo'nalishlaridagi izlanishlari, ularning kalom ilmi bilan bog'liqligi hamda Movarounnahrning islom ilm-fani markaziga aylanish omillari bayon etilgan. Tadqiqot xulosalari Markaziy osiyolik ulamolarning boy bibliografik merosini tiklash va hanafiylik tarixini kompleks o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: at-Tabaqot as-saniya, Markaziy Osiyo, Movarounnahr, hanafiy mazhabi, fiqh, faqihlar biografiyasi, Buxoro maktabi, manbashunoslik, Taqiyuddin Hanafiy, islom huquqi.

THE SIGNIFICANCE OF AT-TABAQĀT AL-SANIYYA IN THE STUDY OF THE BIOGRAPHIES OF CENTRAL ASIAN SCHOLARS

Abstract. This article explores the historical and scholarly significance of Taqi al-Din al-Hanafi's monumental work, «Tabaqat al-saniyya fi tarajim al-hanafiyya» specifically focusing on its value in documenting the biographies of Central Asian jurists. The introduction of Islam to the region of Mawarannahr initiated a transformative process where legal norms were harmonized with local customs and social structures. This study highlights how the distinct legal schools of Bukhara, Samarkand, and Nasaf emerged as epicenters of intellectual life, shaping the evolution of the Hanafi madhhab. The article details the academic contributions of local scholars and their roles in establishing a unified Mawarannahr tradition of jurisprudence.

A central theme of the research is the source-based analysis of «Tabaqat al-saniyya». The author examines the two-fold methodological approach used by Taqi al-Din al-Hanafi: the integration of oral traditions passed down through scholarly lineages and the meticulous use of written records. Key intertextual links are identified with Abdulqadir al-Qurashi's «al-Jawahir al-mudiyya» and Abu Sa'd al-Sam'ani's «Kitab al-ansab». By investigating these connections, the paper elucidates how biographical dictionaries served as crucial tools for preserving the intellectual history of Central Asia. Furthermore, the article discusses the contributions of Bukhara's jurists to «usul al-fiqh» (legal theory) and «furu al-fiqh» (applied law), asserting that their work turned the region into a beacon of Islamic civilization. This comprehensive study provides essential insights for historians, theologians, and researchers specialized in Islamic legal history and Central Asian heritage.

Keywords: Tabaqat al-saniyya, Central Asia, Mawarannahr, Hanafi madhhab, Fiqh, biographies of jurists, Bukhara school, source studies, Taqi al-Din al-Hanafi, Islamic law.

KIRISH

Movarounnahr zamini islom olamining yirik ilmiy-madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Islom dinining ushbu hududga kirib kelishi nafaqat e'tiqodiy o'zgarishlar, balki til, san'at, maorif va huquqiy tizii rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayonda mahalliy ulamolarning roli beqiyosdir. Ular islom ta'limotini mahalliy sharoit va urf-odatlar bilan moslashtirib, hanafiylik mazhabining o'ziga xos Movarounnahr maktabini yaratdilar.

Movarounnahr faqihlarining ilmiy faoliyati faqatgina diniy matnlarni sharhlashdan iborat bo'lmay, balki ijtimoiy va siyosiy hayotni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishni ham qamrab olgan. Taqiyuddin Hanafiyning «at-Tabaqot as-saniya» asari ana shu jarayonlarni o'rganishda eng muhim birlamchi manbalardan biri bo'lib, unda mintaqamiz olimlarining biografiyalari keng qamrovli va ishonchli tarzda berilgan.

Markaziy Osiyo diyoriga islom dini kirib kelar ekan, uning yangi sharoitga moslashishi jamiyat hayotining turli jabhalarida – til, san'at, maorif, din, axloq, maishiy hayot va boshqa sohalarida o'z aksini topa boshladi. Bu jarayonlarda ulamolarning o'rni alohida e'tiborga molik bo'lib, hududda islom tarixini, uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishda olimlar guruhlar, islom ta'limoti, huquqiy maktablarning vujudga kelishi, rivojlanishi, buyuk namoyondalari ijodi, faoliyati, qarashlari, ular o'rtasida aloqalarni o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Movarounnahr faqihlari hukm chiqarishda nafaqat islomiy qoidalar, balki ba'zi masalalarda mahalliy urf-odatlar ham asos qilib olganlar. Mahalliy fiqhiy maktablar Movarounnahr o'lkasiga xos an'analar, urf-odatlar, ma'lum huquq normalari bilan g'oyalar, fikr va qarashlarning o'zaro ta'siri ostida shakllanib borgan (Muminov A.K. 1991:14). Shu bois Markaziy Osiyo hayotida muhim o'rin tutuvchi fiqhiy maktablar faoliyati va faqihlar hayoti, ular yashagan davrdagi siyosiy-ijtimoiy hayot, fan va madaniyatni o'rganish nihoyatda dolzarb masala sanaladi.

Ushbu hududdan yetishib chiqqan olimlar hayoti tadqiqi bo'yicha A.Muminov ilmiy tadqiqoti muhim hisoblanadi. U o'zining ilmiy ishida Nasaf, Buxoro va Samarqandda shakllangan fiqh maktablari, ularda faoliyat olib borgan olimlar haqida so'z yuritadi. Ushbu shahar maktablarning birlashishi natijasida vujudga kelgan yagona Movarounnahr maktabining Markaziy Osiyo madaniyatining rivoji va hanafiy mazhabi taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib o'tadi (Muminov A.K. 2015:16).

Bugungi kungacha saqlanib qolgan, ko'plab Markaziy osiyolik hanafiy olimlarning hayoti va ilmiy merosi haqidagi ma'lumotlarni jamlagan eng qadimiy manba esa Subazmuniyning «Kashf al-osor» asari hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Markaziy Osiyoda yozilgan tarixiy-biografik janrdagi manbalarga nazar solinsa, ularda ikki janr borligi ko'zga tashlanadi: 1) muhaddislar tomonidan «ulum al-hadis» doirasida yig'ilgan to'plamlar 2) Manolib janridagi to'plamlar.

Taqiyuddin Hanafiyning «at-Tabaqot» asari hanafiy faqihlari biografiyasini qamragan manbalar orasida ma'lumotlarining qamrovi, ishonchliligi jihatidan mo'tabar manba hisoblanadi. Ammo ushbu manba hozirgacha kompleks tarzda o'rganilmagan. Asarni ilmiy asosda chuqur tadqiq qilish, Markaziy Osiyoda faoliyat olib borgan hanafiy faqihlar tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning ushbu hudud olimlari bo'yicha to'plagan ma'lumotlari ikki turdagi manbalarga tayanadi. Birinchi turdagi manbalar og'zaki rivoyatlar bo'lib, muallif ularni ustozlaridan bevosita qabul qilib olgan. Ikkinchi tur yozma manbalar bo'lib, unga faqihlar tomonidan to'plangan hamda o'zida Markaziy osiyolik olimlar tarjimai holini jamlagan asarlar kiradi.

Mazkur manbalar orasida Abdulqodir Qurashiyning «al-Javohir al-muziya» kitobi alohida o'rin tutadi. Taqiyuddin Hanafiy o'z asarida «al-Javohir al-muziya»dan ko'plab iqtiboslar keltiradi. Abdulqodir Qurashiyning «al-Javohir al-muziya» asari nafaqat Taqiyuddin Hanafiy, balki «at-Tabaqot al-hanafiya» janridagi boshqa asarlar uchun ham asos manba vazifasini o'tagan. O'z navbatida Abdulqodir Qurashiyning ushbu hudud olimlari to'g'risidagi ma'lumotlari Abu Sa'd Somoniyning «Kitob al-ansob» (Kamaliddinov Sh.S. 1993:157) asaridan olingan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, «at-Tabaqot as-saniya»dagi Markaziy osiyolik olimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning manbasi Abu Sa'd Somoniyning asaridir. Yozma manbalar orasida muhaddislar tomonidan ta'lif qilingan biografik asarlar ham uchraydi.

Islom ilmlari Buxoroda kirib kelgach, shahardan yetishib chiqqan ulamolarning faoliyati natijasida ham usul al-fiqh hamda furu' al-fiqh rivojlanib, ularning har ikkisi bo'yicha muhim va e'tiborga loyiq asarlar yozildi.

Buxoro faqihlari tomonidan usul va furu' bo'yicha yaratilgan keng qamrovli asarlar, shuningdek, kalom

ilmi sohasida yozilgan bir qator kitoblar shundan dalolat beradiki, hanafiy fiqh maktabi rivojida ular ilg'or o'rinda turib, Buxoroni Movarounnahr atoqli faqihlarining faoliyat markaziga aylantirib kelganlar.

«At-Tabaqot as-saniya»ning I, II, III, va IV jildlarida Buxorodan yetishib chiqqan faqihlar orasida yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan 20 ga yaqin olimning tarjimai holi qayd etilgan. Jumladan, 70-raqamli biografiyada «Amin» (ishonchli) nomi bilan mashhur bo'lgan faqih Ibrohim ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Hishom Abu Ishoq Buxoriy biografiyasi berilgan. Taqiyuddin Hanafiy uni muhaddis sifatida ham tilga olib quyidagi ma'lumotlarni beradi: «Abu Ali Solih Jazaradan hadis tinglagan, Bag'dodga borib, u yerda ham hadis aytgan hamda bag'dodliklar undan hadis rivoyat qilgan». Muallif ushbu faqihni Ibrohim ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Hishom Abu Ishoq Buxoriy Hofiz Muhammad Abdulloh Naysoburiy ham zikr qilganini eslatadi: «U o'z zamonasida nazar ahli (ahli ra'y)ning faqihi edi. Biz tomonga hijriy 337 yilda haj qilgan vaqtda kelgan. Undan Hofiz Abu Alining «al-Intixob» (Saylanma)sini yozib olganmiz». Biografiyaning oxirida olimning hijriy 346 yilda vafot etgani haqida ham ma'lumot berilgan (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:224).

Taqiyuddin Hanafiy 156-raqamli tarjimai holda buxorolik qozi Ahmad ibn Abu Said Ahmad ibn Abu Xattob Muhammad ibn Ibrohim ibn Ali Tabariy Buxoriy Ka'biyning biografiyasini keltiradi. Taqiyuddin Hanafiyning ma'lumotiga ko'ra, ushbu olim hijriy 496 yilda tug'ilgan. Fiqh ilmini otasi hamda Imom Burhondan o'rgangan. Undan Abu Muzaffar Somoniy rivoyat qilgan. Mazkur olim biografiyasini yoritishda Imom Hokim uni «Tarixi Naysobur» asarida zikr qilganini keltiradi. Olim Nishopurda hanafiy fiqhidan dars bergani va hadis rivoyat qilgani haqida aytib o'tadi. U hijriy 560 yilda vafot etgani qayd etilgan (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:314).

«At-Tabaqot as-saniya»da 197-raqamli biografiya buxorolik faqih Ahmad ibn Sa'd ibn Nasr ibn Bakar ibn Ismoil Abu Bakr Buxoriyga tegishli bo'lib, Taqiyuddin Hanafiy uni muhaddis sifatida ta'riflaydi: «Bag'dodga kelib, u yerda Hofiz Solih Jazara, hanafiy imom Ali ibn Muso Qummiy va boshqalardan hadis eshitgan. Undan Abulhasan ibn Rizquvayh hadis rivoyat qilgan» (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:354).

220-raqamli biografiyada «shams al-aimma» nomini olgan va «Tanqih al-uqul fi furuq al-manqul» asari muallifi bo'lgan Ahmad ibn Ubaydulloh ibn Ibrohim ibn Ahmad ibn Abdul Malik ibn Umar ibn Abdul Aziz ibn Muhammad ibn Ja'far ibn Horun ibn

Muhammad ibn Ahmad ibn Mahbub ibn Valid ibn Uboda Mahbubiy Buxoriy biografiyasi bayon etilgan. Taqiyuddin Hanafiy uni Uboda ibn Somit avlodlaridan deb aytadi va otasi ulug' imom Ubaydulloh ibn Ibrohimdan fiqhni ta'lim olgani haqida ma'lumot beradi (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:376).

227-biografiyada Qivomiddin (Din tayanchi) laqabi bilan tanilgan Ahmad ibn Abdurashid Buxoriyning biografiyasi berilib uni «al-Hidoya» muallifi tarjimai holda, shuningdek, «al-Javohir»da zikr etilgani ta'kidlangan (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:379).

230-biografiyada Imom Ahmad ibn Abdulaziz Halvaniy Buxoriyning tarjimai holi keltirilgan. Taqiyuddin Hanafiy mazkur olim biografiyasini Abdulqodir Qurashiyning «al-Javohir» asaridan olgan holda quyidagi iqtibosni keltiradi: «Ali ibn Ubaydulloh Xatibiydan fiqhni o'rgangan. (Taqiyuddin Hanafiy, 1983:381).

253-tarjimai holda Ahmad ibn Ali ibn Ali ibn Hibatulloh ibn Muhammad ibn Ali ibn Buxoriy haqida ma'lumot keltirilgan. Uning kunyasi Abulfazl bo'lib, «qozi ul-quzzot» Abu Tolibning o'g'li edi. Otasining huzurida guvohlik qilgan va uning guvohligini qabul qilgan hamda uni qozilikda o'ziga yordamchi qilib tayinlagan. Otasi vafot etgach, Bag'dodda qozilik vazifasini bajarish unga topshirilgan. U «eng to'g'ri hukm chiqaruvchi qozi» deb deb e'tirof etilgan. So'ngra uzlatga chekinib, o'limiga qadar o'z uyidan tashqariga chiqmagan. U 599-yil, Zulhijja oyining 4 sanasida, chorshanba kuni vafot etgan (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:402).

273-biografiyada «Iroqiy» nomi bilan tanilgan Ahmad ibn Amr ibn Muhammad ibn Muso ibn Abdulloh Buxoriy biografiyasi berilgan. Abu Nu'aym Abdulmalik ibn Muhammad ibn Adiy Istirobodi, Muhammad ibn Yusuf ibn Osim Buxoriy va boshqalardan hadis rivoyat qilgan. Abu Nasr kunyasi bilan mashhur bo'lgan. Hofiz Idrisiy «Tarixi Samarqand» asarida u haqida zikr qilib, shunday yozadi: «Fiqhda Abu Hanifa (Alloh taolo u zotdan rozi bo'lsin) as'hoblarining peshvolaridan biri bo'lgan. Taqiyuddin Hanafiy uni bir muddat Samarqandda qozilik qilib, so'ng Buxoroga ketib qolgani, 396 yilga qadar Buxoroda yashab, o'sha yerda vafot etgani haqida yozadi (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:419).

285-biografiyada Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Ali Buxoriy Abu Said ibn Abu Xattob haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Undan o'g'li Ahmad fiqhni o'rgangani hamda hadis rivoyat qilgani haqida ma'lumot berilgan. «Al-Kuna», shuningdek, «al-Javohir» asarlarida uning nevarasi Muhammad ibn

Ahmad hamda otasi Xattob Muhammad ibn Ibrohim ibn Ali hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlar keltiriladi (Taqiyuddin Hanafiy, II. 1983:224).

296-biografiyada Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Shujo' Abu Nasr Saffor Buxoriy haqida o'z boradi. Jumladan, uning haj asnosida Bag'dodga kelgani, u yerda Iso ibn Muso G'unjorning «al-Ayn» kitobi va boshqalarni Xalaf ibn Muhammad Xattomdan rivoyat qilgani, 377-yil safar oyida hajdan qaytgani to'g'risida zikr qilingan. Shuningdek, Taqiyuddin Hanafiy mazkur olimni Xatib Bag'dodiy o'zining «Tarix» asarida zikr qilgani haqida aytib o'tgan (Taqiyuddin Hanafiy, II. 1983:32).

304-biografiyada buxorolik Shamsiddin nomi bilan mashhur bo'lgan Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad Oqiliy Buxoriyning tarjimai holi berilgan. Taqiyuddin Hanafiy uni muhaddis sifatida zikr qilib, shunday yozadi: «U shayx, olim va ishonchli roviy bo'lgan. Ona tomondan bobosi imom, alloma Sharofuddin Umar ibn Muhammad ibn Umar Aqiliydan hadis rivoyat qilgan va undan fiqh ilmini o'rgangan». Muhammad ibn Hasan Shayboniyning «al-Jome' as-sag'ir» asarini chiroyli nazmga solgani va 657-yil ramazon oyining 5-kunida Buxoroda vafot etgani haqida ma'lumot beradi (Taqiyuddin Hanafiy, II. 1983:38).

344-tarjimai holda Ahmad ibn Muhammad ibn Umar Abu Nasr Attobi Buxoriy haqida qayd etilgan. U imom, olim, alloma, zohid, «Zayniddin» nomi bilan maqtalgan. U keng shuhrat qozongan, asarlaridan olimlar foydalanganlar. Jumladan, uning «Az-Ziyodot» kitobini Imom Hofzuddin, Shams ul-aimma Kardariy kabi olimlar rivoyat qilganlar. Shuningdek, u to'rt jildan iborat «Jome' al-fiqh», «Sharh al-Jome' al-kabir» va «Sharh al-Jome' as-sag'ir» kabi kitoblar ham yozgan. Imom Zahabiyning qayd etishicha, «Kitob fi-t-tafsir» asari ham uning qalamiga mansub. Olim 586-yil yakshanba kuni tush vaqtida Buxoroda vafot etgan va Kalobozga dafn etilgan. Abu Zayd Dabusi va boshqalardan iborat yetti faqih maqbarasiga qo'yilgan (Taqiyuddin Hanafiy, II. 1983:72). 451-biografiyada Saffor nomi bilan mashhur Ishoq ibn Ahmad ibn Shit, Abu Nasr Buxoriy haqida ma'lumot berilgan. U 405-yil haj asnosida Bag'dodga borib, u yerda Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil Kushoniydan hadis tinglagan. Xatib (Bag'dodiy) aytadi: «Hasan ibn Ali ibn Muhammad Muzhib undan hadis rivoyat qilgan va unga yaxshi maqtovlar aytgan» (Taqiyuddin Hanafiy, II. 1983:151).

493-biografiyada Ismoil ibn Husayn ibn Ali ibn Husayn ibn Horun Abu Muhammad Faqih, Zohid,

Buxoriy keltirilgan. U Hajga ketayotib Bag'dodga bir necha marta borgan. U yerda Muhammad ibn Ahmad ibn Xonb al-Buxoriy, Bakr ibn Muhammad ibn Hamdon Marvazi, Muhammad ibn Abdulloh ibn Yazdod Roziy va boshqalardan hadis eshitgan. 505-biografiyada faqih Ismoil ibn Sa'd Abulqosim, Imad Islom Ibn Abu A'lo Buxoriy tarjimai holi berilgan. U Isfahonda qozilik qilgan, podshoh va sultonlar nazdida afzal a'yonlardan bo'lgan. Ibn Najjor: «Qozilik ushbu kunimizga qadar uning o'g'lida», degan. 510 yilda Bag'dodga borgan.

643-biografiyada Hurays Ibn Abulvafo Buxoriy to'g'risida ma'lumot keltirilgan. U Buxorodagi hanafiy faqihlar peshvolaridan biri, «as-Sahih» muallifi Buxoriy zamonida (unga zamondosh) bo'lgan. Uni Abu Hafs Kabir bilan Buxorodan chiqarib yuborishga sabab bo'lgani aytiladi. O'z davrida ishora qilinadigan, jimjiloqlar tugiladigan (barmoq bilan sanaladigan) lardan bo'lgan (Taqiyuddin Hanafiy, III. 1983:32). 755-biografiyada Husayn ibn Ali ibn Ahmad Buxoriy tarjimai holi berilgan. Ibn Najjor aytadi: «U Muhammad ibn Ismoil ibn Ahmad ibn Husayn Xatibiy Buxoriyning ustozidir» (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:192).

Yuqorida qisqacha tavsifi keltirilgan faqihlarning aksariyati hadisda ham mashhur bo'lgan.

Taqiyuddin Hanafiy samarqandlik olimlardan quyidagilarning tarjimai holini berib o'tadi:

32 – raqamli biografiyada Ibrohim ibn Husayn ibn Horun Abu Ishoq Samarqandiy Daqqoqni keltirib o'tgan. Ibrohim ibn Husayn haqidagi ma'lumotlarning aksariyatini «al-Javohir»ga suyanib keltiradi. «Al-Javohir»da muallif aytadi: «Abu Sa'd Idrisiy uni «Tarixi Samarqand»da zikr qilib, shunday degan: «U Allohning solih bandalaridan, Abu Hanifa izdoshlaridan va o'zi fozil zot edi. O'z mazhabdoshlarining barchasiga infoq qilgan, ularga ko'p narsalarni ma'lum qilgan». Taqiyuddin Hanafiy uni hadis va rivoyat rasmini bilmaganini va 390 yil yoki 90-yildan biroz keyin vafot etganini keltiradi (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:224).

72 – raqamli biografiyada Ibrohim ibn Muhammad ibn Ishoq ibn Ibrohim ibn Nasruvayh, Abu Is'hoq Dahqon Samarqandiy Nasruviy biografiyasi berilgan. U 323 yilda tug'ilgan. Abu Sa'd Idrisiy aytadi: «Biz undan hadis yozib olganmiz. U bizga bobosi Ibrohim ibn Nasruvayhning kitoblaridan hadis aytar edi. As'hobi ra'y hanafiylardan bo'lgan fozil zot edi» (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:225). 142 – biografiyada Ahmad ibn Ismoil ibn Omir, Abu Bakr Samarqandiy tarjimai holi berilgan. U «Ra'iyu Samarqand» laqabi ila tanilgan. «Abu Iso Termizi, Sa'id ibn Xushnomdan hadis rivoyat qilgan. Hofiz Abul Abbos Mustag'firi

«Tarixi Nasaf» asarida uning nomini zikr qilib: «Bobom Abu Bakr ibn Mustag'firi davrida bizning uyimizga kelib, hadis aytgan, juda ko'p hadis bilar edi», degan. 321 yilda Buxoroda vafot etgan (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:280).

206 – biografiyada faqih Ahmad ibn Abbos ibn Husayn ibn Jabla ibn G'olib ibn Navfal ibn Iyyod ibn Yahyo ibn Qays ibn Sa'd ibn Ubadah Ansoriy Xazrajy Samarqandiy Iyodiy keltirilgan. U Abu Sulaymon Muso ibn Sulaymon Juzjoniyni shogirdi – Imom Abu Bakr Ahmad ibn Ishoq Juzjoniyni fiqhni o'rgangan. Juda ko'pchilikka fiqhdan saboq bergan, ulardan orasida o'g'li ham bor (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:363). 331 – biografida faqih Ahmad ibn Muhammad ibn Abdul Jalil ibn Ismoil Abu Nasr Samarqandiy Abrisamiy keltirilgan. U 486 yillarda tug'ilgan. Samarqandda fiqhni o'rganib, Abu Lays Samarqandiyning «Tanbeh al-g'ofiliyn» asarini Imom Ishoq ibn Muhammad Nuhiydan eshitgan, u Abu Bakr ibn Muhammad ibn Abdurrahmon Zaydidan, u musannifdan (rivoyat qilgan). Taxminan 550 yilda vafot etgan. Abrisamiy nisbasi uning abrisham – ipak bilan shug'ullangani uchun berilgan (Taqiyuddin Hanafiy, II. 1983:63).

448 – biografiyada Ishoq bin Ibrohim bin Nasruvayh Abu Ibrohim Samarqandiy Xatibiy haqida ma'lumot berilgan. Imom Abulhasan Ali Xatibiyning akasi, Abu Hanifa as'hoblari shayxi, o'z davrida ularning eng ilmlisi bo'lgan. Abu Amr ibn Sobir, Abu Ishoq Ibrohim ibn Ahmad Mustamliy, Muhammad ibn Ahmad ibn Shozon va bir guruh roviylardan hadis rivoyat qilgan. Undan ukasi Ali va va boshqalar rivoyat qilgan. 411 yilda vafot etgan (Taqiyuddin Hanafiy, II. 1983:149). 462 – biografiyada Hakim Samarqandiy nomi bilan mashhur bo'lgan Ishoq ibn Muhammad Abulqosim keltirilgan. Imom Moturidiydan fiqh va kalom ilmini o'rgangan. «Al-Javohir»da muallif uni zikr qilib: «Men uni oldin keltirilgan deb o'ylayman», – degan (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:159).

674 – raqamda keltirilgan faqih Hasan bin Dovud bin Rizvon, Abu Ali as-Samarqandiy Nishopurda Abu Sahl az-Zujojiydan fiqhni o'rganib, Ibn Dosadan Abu Dovudning «Sunan»ini eshitgan. Hokim Naysoburiy «Tarixi Naysobur»da aytadi: «U nazar va jadalbo'yicha kufalik peshqadam faqihlardan edi. Iroqqa borib, u yerda hadis tinglab, fiqh o'rganib yurgan. So'ng Nishopurga borib, fiqhdan saboq bergan hamda u yerda madrasa qurgan. Hakim aytadi: «Men bilan bir muddat turgan». 395 yil Rajab oyining 19-sida, Dushanba kuni vafot etgan (Taqiyuddin Hanafiy, III. 1983:58). 726 – biografiyada Hasan bin Nosir bin Abu Bakr Bakraboziy Kog'idiy Samarqandiy keltirilgan.

Imom Jamoliddin al-Mahbubiyning shayxlaridan biri. «Al-Hidoya» muallifi (Burhoniddin Marg'inoniy)ning do'sti bo'lgan (Taqiyuddin Hanafiy, III. 1983:117).

Taqiyuddin Hanafiy bir qator Nasaflik ulamolar biografiyasini ham keltirib o'tadi. Jumladan, 95 – biografiyada Ibrohim ibn Ma'qil Abu Ishoq Nasafiy haqida ma'lumot uchraydi. U Nasaf qozisi bo'lgan. «Al-Javohir»da Qurashiy quyidagilarni aytgan: «U 295 yilda vafot etgan, Alloh taolo uni rahmatiga olsin». Taqiyuddin Hanafiy ta'kidlashicha, Zahabiy uni zikr qilib, shunday degan: «Ibrohim ibn Ma'qil ibn Hajjoj, Abu Ishoq Nasafiy. Nasafning qozisi va olimidir. Safar qilgan, ko'plab kitoblar bitgan. Jubora ibn Mug'allis, Qutayba ibn Sa'id, Hishom ibn Ammor va ularning tengqurlaridan hadis rivoyat qilgan. Abu Abdulloh Buxoriydan «as-Sahih»ni rivoyat qilgan. Nasafning faqihi, ulamolar ixtilofini yaxshi biluvchi bo'lgan. Undan o'g'li Sa'id, Abdulmo'min ibn Xalaf, Muhammad ibn Zakariyo kabi nasafliklar rivoyat qilishgan. Yana Xalaf ibn Muhammad Hayyom va boshqalar ham hadis rivoyat qilganlar. «Musnad», «tafsir» va boshqalarni yozgan. 295 yil Zulhijja oyida vafot etgan» (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:224).

160 – raqamli tarjimai holda Ahmad ibn Abulmuayyad Mahmudiy, Nasafiy keltiriladi. Kunyasi Abu Nasr bo'lgan. U ulug' imom, fozil, zohid, dunyodan yiroq, ulamolar allomasi, «al-Jomi' al-kabir al-manzum» asari musannifi bo'lgan. Ushbu kitob bir jild, sharhi esa ikki jildidan iborat (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:316). 243 – biografiyada Ahmad ibn Aziz ibn Sulaymon ibn Mansur ibn Ikrima Nasafiy Pazdaviyni uchratish mumkin. Sulaym ham deyilgan. Ibn Hibbon ibn Muso Marvaziy, Abu Ja'far Ahmad ibn Hafs Buxoriy va Abdulloh ibn Muborak as'hoblaridan bo'lgan bir guruh mutaqaddim ulamolardan hadis rivoyat qilgan. Hofiz Abul Abbos Mustag'firi uni «Tarixi Nasaf» asarida zikr qilib, shunday degan: «Abu Hanifa as'hoblaridan, imom (peshvo) bo'lgan. Undan Nasaf ahli hadis rivoyat qilgan». Bobosi Sulaym basralik bo'lib, Xurosonga Qutayba ibn Muslim bilan birga kelgan, Nasaf hokimliklaridan biri Pazdada yashagan (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:393).

270 – biografiyada Majd nomi bilan mashhur bo'lgan Ahmad ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil ibn Ali ibn Luqmon Abu Lays ibn Shayxulislom Abu Hafs, Nasafiy keltiriladi. U Samarqandlik bo'lib, 507 yilda tug'ilgan. Otasi imom Najmiddin Umar Nasafiy va boshqalardan fiqh ilmini o'rgangan. Otasi bir guruh samarqandlik va Samarqandga kelgan boshqa ulamolardan hadis eshittirgan. Otasidan juda ko'p hadis rivoyat qilgan.

Lekin otasi kabi hadisga katta e'tibor qaratmagan. Abu Sa'd u haqida shunday degan: «Muhaddis va imomlar avlodidan, fozil faqih, komil voiz, vazmin, do'stlar bilan yaxshi aloqada bo'lgan. 47 (547) yili Hijozga ketayotib, Marvga borgan. Sulton Mas'ud vafoti va yo'llar tartibsiz bo'lgani tufayli Nishopurga qarab jo'nagan. U bilan 47-yil boshida Samarqandda ko'rishdim va birga bo'ldim. Menga kitoblar va juzlarni berib turar, meni ko'rgani kelar, meni uni ko'rgani borar edim. U bilan ko'p birga bo'lishim va yaqin do'st bo'lishimga qaramay Samarqandda undan biror narsa eshita olmadim. 51-yili haj qilish maqsadida Buxoroga, bizning oldimizga keldi. Bag'dodga borib, u yerda ikki oy va bir necha kun turdi. Chunki amir ul mo'minin al-Muqtafiy li-amrillah bilan sulton Muhammad Shoh o'rtasida urushlar davom etardi, odamlar o'ta qiyinchilikda edilar. Bu 52-yilning safar oyida bo'lgan. Shunda u Bag'doddan o'z vatani tomon yo'lga chiqdi. Qumisga yetib, Bistomga yetganda qal'adagilardan bir guruh chiqib, karvonga qaroqchilik qildilar. Juda ko'pchilik ulamolar va Hijozdan kelayotgan 70 dan ortiq karvondagilarni qatliom qildilar. Ularning orasida Majd Nasafiy ham bor bo'lgan (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:417).

301 – biografiyada Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Mahmud ibn Nasr Nasafiy Moymarg'iy haqida ma'lumotlar keltirilgan. U Moymarg'ga nisbat berilib, Moymarg'iy deyiladi. Mashhur imom bo'lgan otasida fiqhni ta'lim olgan (Taqiyuddin Hanafiy, II. 1983:36). 318 – raqamli biografiyada Ahmad ibn Muhammad ibn Said, Abu Nasr Nasafiy haqida so'z boradi. Hofiz Abu Ali Muhammad ibn Muhammad ibn Horis Samarqandiy va boshqalardan hadis rivoyat qilgan. Hofiz Abu Sa'd Idrisiy «Tarixi Samarqand» asarida uni zikr qilib: «U Abu Hanifa mazhabidagi faqihlardan bo'lgan. Mu'taziliylik bilan tuhmat qilingan, biz undan hadis yozib olganmiz», degan. 374 yil Rabi'yul-avval oyida vafot etgan (Taqiyuddin Hanafiy, II. 1983:48).

458 – biografiyada Ishoq ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Muhammad ibn Nuh Ibn Zayd ibn No'mon ibn Abdulloh ibn Husayn ibn Zayd ibn Nuh Nuhiy, Xatib Nasafiy keltirilgan. Ilm va fazilat xonadonidan bo'lgan qozi Ismoil Nuhiyning ukasi edi. Ushbu Ishoq ismli olim fozil faqih bo'lib, uzoq umr ko'rgan, xatiblik lavozimida ishlagan. Abu Bakr Muhammad ibn Abdurrahmon Muqriy, Abu Mas'ud Ahmad ibn Muhammad Roziy va boshqalardan hadis rivoyat qilgan. Undan esa Abu Muhomid Mahmud ibn Ahmad ibn Faraj Sog'arjiy, Ahmad ibn Muhammad ibn Abduljalil va boshqalar rivoyat qilganlar. 433-yil Safar

oyida tug'ilgan va 518-yil jumodul-ulo' 17-si, juma kechasida Nasafda vafot etgan (Taqiyuddin Hanafiy, II. 1983:157).

614 – biografiyada Ja'far ibn Muhammad ibn Mu'taz ibn Muhammad ibn Mustag'fir Abul Abbos Nasafiy Mustag'firi haqida so'z boradi. Nasafning xatibi bo'lgan. Fozil faqih, ko'p hadis biladigan muhaddis, rostgo'y hofiz bo'lib, zamonasida Movarounnahrda unga o'xshashi bo'lmagan, juda go'zal tarzda yozgan asarlari bor. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad G'unjor va Zohir ibn Ahmad Saraxsiydan hadis tinglagan. Undan Abu Mansur Som'oni rivoyat qilgan. Hijriy 350-sanada tug'ilib, 432-yil Jumodul-ulo' oyidan keyin Nasafda vafot etgan. 686 – tarjimai holda Qozi Hasan ibn Abdulloh Abu Ali Nasafiy keltirilgan. Abul Abbos Mustag'firiynig ustozlaridan bo'lgan (Taqiyuddin Hanafiy, III. 1983:281).

Taqiyuddin Hanafiy Marvlik olimlardan ham bir qatorini keltirib o'tgan. Xususan, 37 – Ibrohim ibn Rustam Abu Bakr Marvaziy keltiriladi. Mashhur imomlardan biri, Mansur ibn Abdulhamiddan hadis tinglagan. U Anas ibn Molikdan rivoyat qilgan shayx (roviy)dir. Shuningdek, Molik ibn Anas, Muhammad ibn Abdurrahmon ibn Abu Zi'b, Sufyon as-Savriy va boshqalardan hadis eshitgan. Bag'dodga ko'p marotaba kelib, u yerda hadis aytgan. Iroqliklardan Sa'id ibn Sulaymon Sa'duvayh, Ahmad ibn Hanbal, Zuhayr ibn Harb va boshqalar hadis rivoyat qilganlar.

69 – Ibrohim ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Quraysh Marvaziy, Abu Ishoq Muzakkir. Samarqandda yashagan, marvlik Kotib Abu Ishoq Ibrohim ibn Ahmad, Abdulloh ibn Mahmud Sug'diydan hadis rivoyat qilgan. Abu Sa'd Idrisiy «Tarixi Samarqand» asarida uni zikr qilib: «Biz undan Samarqandda hadis yozib olganmiz, uning hech qanday aybi yo'q. Abu Hanifa as'hoblaridan edi, zohidlik va taqashshufyo'lini tutgan edi. 373-yil Safar oyida Samarqandda vafot etgan (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:223).

100 – Ibrohim ibn Maymun So'ig' Marvaziy. Abu Hanifa, Ato (ibn Abu Raboh) va boshqalardan hadis rivoyat qilgan. Undan esa Hasson ibn Ibrohim va boshqalar rivoyat qilganlar. Uni Nasoiy, Abu Dovud roviy sifatida keltirib, Nasoiy: «Uning hech qanday aybi yo'q», degan. Sam'oni rivoyati: «U fozil faqih edi, 131-yilda Abu Muslim Xurosoniy uni Marvda qatl etgan» (Taqiyuddin Hanafiy, I. 1983:249).

184 – Ibn Tabariy nomi bilan tanilgan Ahmad ibn Husayn ibn Ali Abu Hamid Marvaziy. Otasi hamadonlik bo'lgan. Ahmad ibn Xizr Marvaziy, Ahmad ibn Muhammad ibn Umar Munkadiri, Muhammad

ibn Abdurrahmon Dag'ovliy va boshqalardan hadis eshitgan. Xatib Bag'dodiy aytadi: «U mujtahid obid, puxta ulamolardan, hadis hofizi, asar (hadis va xabarlar)ni yaxshi biluvchi edi. Yoshligida Bag'dodga kelib, u yerda fiqhni o'rgangan. Abulhasan Karxiy qo'lida Abu Hanifa mazhabini o'rgangan, so'ng Xurosonga qaytib, u yerda «qozil-quzot» bo'lib tayinlangan. Kitoblar yozib, hadis rivoyat qilgan, so'ng Bag'dodga borib, tishi kasallanib qolgan. U yerda ham hadis aytgan, odamlar undan hadis yozib olgan, al-Barqoniy uni ishonchli roviylar qatorida sanagan. Abu Sa'd Idrisiy aytadi: «U Ahmad ibn Husayn, qozi Abu Homid Marvaziydir, al-Hamadoniy nomi bilan mashhur bo'lgan. Asli Hamadondan, Buxoro va uning atroflariga qozi bo'lib tayinlangan, ahli ra'yning ulug' faqihlaridan bo'lgan. Ko'p hadis yozib, taxrij qilgan. «At-Tarix» asarini yozgan. Hadis va rivoyatda ishonchli bo'lgan. Buxoroda yashab, 377-yili o'sha yerda vafot etgan. Yana uning o'sha yili Safar oyining 9-kuni Marvda vafot etgani ham aytiladi. Alloh taolo uni rahmatiga olsin». Imom Hokim uni 373 yilda vafot etganini aytgan. 481 – biografiyada Ismoil bin Ibrohim bin Maymun So'ig' Marvaziya haqida qaydlar keltirilgan. Otasi – Ibrohimda fiqhni o'rgangan (Taqiuddin Hanafiy, II. 1983:177).

568 – Bishr bin Yahyo Marvaziya biografiyasi ham uchraydi. Nusayr ibn Yahyo aytadi: «Bishr Ibn Yahyo Marvaziydin sichqon va shu kabi najosat tushib ketgan, undan xamr qorilib, non qilingan oz suv haqida so'rashdi. U: «Uni nasroniylarga sotib yuboringlar. Agar ular buni bilsalar, uni yemasalar kerak deb o'ylayman, bildirib qo'yish lozim», dedi. So'ng: «Uni yahudiylarga sotinglar. Agar ular buni bilsalar, uni yemasalar kerak deb o'ylayman, bildirib qo'yish lozim», dedi. So'ng: «Uni majusiylarga sotinglar. Agar ular buni bilsalar, uni yemasalar kerak deb o'ylayman, bildirib qo'yish lozim», dedi. So'ng: «Uni o'sha: «Suv pok, uni hech narsa najas qilmaydi», deydiganlarga sotinglar», dedi. «Hayratul-fuqaho»da shunday keltirilgan, uni «al-Javohir» muallifi Qurashiy ham keltirgan (Taqiuddin Hanafiy, III. 1983:242).

Balxlik olimlardan ham bir qatorini keltirgan. Jumladan, 202 – biografiyada faqih Ahmad ibn Sahl Abu Hamid Balxiy haqida so'z boradi. Muhammad ibn Fazl Balxiy, Samarqand qozisi – Muhammad ibn Aslamdan hadis rivoyat qilgan. Undan esa nabirasi Abdulloh ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Sahl, faqih Abdulloh Muhammad ibn Shoh Samarqandiy rivoyat qilgan. Hofiz al-Idrisiy uni «Tarixi Samarqand» asarida zikr etib, quyidagilarni aytgan: «U as'hobi ra'y (hanafiylar)dan bo'lgan fozil zot edi. Samarqandda yashagan, avlodlari ham o'sha yerda. Uning

340 yil ramazon oyida vafot etgani rivoyat qilingan» (Taqiuddin Hanafiy, I. 1983:359).

210 – biografiyada qozi Ahmad ibn Abdulloh ibn Abu Qosim Balxiy tarjimai holi beriladi. Kunyasi Abu Ja'far hisoblanadi. Uning Abu Hanifa rohimullohni haqorat qilganlarga raddiya kitobi bor, uni «al-Ibona» deb nomlagan. «Al-Javohir»da shunday keltirilgan. 244 – biografiyada Ahmad ibn Asma, Abulqosim Saffor keltirilgan. Laqabi Xom Balxiy bo'lgan. Abu Ja'far Hunduvoniydan fiqhni ta'lim olgan va undan hadis eshitgan. Undan esa Abu Ali Husayn ibn Hasan ibn Siddiq ibn Fath al-Vazg'ajniy rivoyat qilgan. 326 yilda 87 yoshida vafot etgan. 373 – biografiyada Imom Ahmad ibn Muhammad Sarxasiy Shuja'iy Balxiy keltirilgan. U 482 yilda vafot etgan (Taqiuddin Hanafiy, I. 1983:365).

771 – biografiyada Husayn ibn Muhammad ibn Xusrav Balxiy haqida so'z boradi. Abul A'lo Soid ibn Mansur ibn Ali Kirmoniyga tegishli «al-Ajnos» kitobining bir qismini Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abu Hanifa Dastijirdiy (Dastgirdiy) Bag'dodga kelganida muallifning rivoyati bilan o'qib, o'tkazib olgan. U Dastijirdga nisbat berilgan va Marvdagi bir necha qishloqlar nomi, ular orasida Marvda ikkita qishloq, Tusda ikkita qishloq, Balxda katta bir qishloq bor. Ko'pchilikdan hadis eshitgan va u Abu Hanifa rohimullohning «Musnad»i jamlovchisidir. Ibn Najjor aytadi: «U Bag'dodda o'z zamonasida iroqliklarning faqihi bo'lgan, ko'pchilikdan hadis tinglagan. Ularning aksariyati Abu Ali ibn Shozon, Abulqosim ibn Bishron as'hoblaridandir, undan Ibn Javziy rivoyat qilgan. Olim 522 yilda vafot etgan» (Taqiuddin Hanafiy, III. 1983:160).

788 –biografiyada Hakam ibn Abdulloh ibn Maslama ibn Abdurrahmon Abu Mutiy' Balxiy keltiriladi. U imom, ilmiga amal qilgan olim, ummatning eng olim kishilaridan biri bo'lgan. O'ta mashhur peshvolar uning fazilatlarini tasdiqlagan. Hishom ibn Hasson, Molik ibn Anas, So'fyon Savriy, Abu Hanifadan rivoyat qilgan, uning eng ulug' as'hoblaridan bo'lgan. U «al-Fiqh al-akbar»ning roviysidir. Undan Ahmad ibn Maniy' va Xuroson ahlidan bo'lgan ko'pchilik rivoyat qilgan. Balxda qozilik qilib, bir necha bor Bag'dodga borgan, u yerda hadis aytgan. Abu Yusuf u bilan ko'rishib, bahs qilgan. Balxdagi qozilik muddati 16 yil edi, haqiqatni gapirib, unga amal qilgan. 814 – biografiyada Xolid ibn Sulaymon Abu Muoz Balxiy keltiriladi. U «Kim fatvo berishga yaraydi?» deb so'ralganida imomni fatvo uchun haqli deb hisoblaganlardan biri edi. Olim 99-yil muharram oyining 26-si, juma kuni vafot etgan (Taqiuddin Hanafiy, III. 1983:178).

MUHOKAMA

Taqiyuddin Hanafiyning «at-Tabaqot as-saniyya» asaridagi ma'lumotlar tahlili Movarounnahr ilmiy maktabining o'ziga xosligini ochib beradi. Birinchidan, biz o'rgangan biografiyalar shuni ko'rsatadiki, mintaq ulamolari o'rtasida ilmiy universalizm ustuvor bo'lgan. Ya'ni, bir vaqtning o'zida ham faqih, ham muhaddis, ham mutakallim¹ sifatida faoliyat yuritish oddiy hol hisoblangan. Masalan, 462-biografiyadagi Hakim Samarqandiyning Imom Moturidiy bilan aloqasi fiqh va aqida ilmida peshqadam bo'lganini ko'rsatsa, 95-biografiyadagi Ibrohim ibn Ma'qilning Imom Buxoriy bilan aloqasi olimning fiqh bilan bir qatorda hadis bilan shug'ullanganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, maqolada keltirilgan isnod² Movarounnahrning nafaqat Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlari, balki Pazda, Moymarg', Bakrabozi kabi chekka qishloqlari ham yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lganini isbotlaydi. Bu esa hanafiylik mazhabining mintaqada naqadar chuqur ildiz otganini anglatadi.

Uchinchidan, mintaqaviy aloqalar masalasi diqqatga sazovordir. Olimlarning Bag'dod, Nishopur va Hijozga safarlari faqatgina haj ziyorati emas, balki katta ilmiy almashinuv bo'lgan. 184-raqamli Abu Homid Marvaziyning Bag'dodda Karxiydan ta'lim olib, so'ng Movarounnahrda «qozi ul-quzzot» bo'lishi iroqlik hanafiylar bilan Movarounnahr maktabi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlagan.

To'rtinchidan, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat masalasining dolzarbligidir. Bishr ibn Yahyo Marvaziyning (568-b.) najosat tushgan suv haqidagi fatvosi olimlarning ijtimoiy hayotdagi kundalik muammolarga naqadar sinchkovlik bilan yondashganini, shu bilan birga boshqa din vakillari (yahudiy, nasroniy) bilan munosabatlarda axloqiy poklikni birinchi o'ringa qo'yganlarini ko'rsatadi.

NATIJA

Tadqiqot davomida «at-Tabaqot as-saniyya» asari asosida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

Asarda Movarounnahrning 10 dan ortiq hududlaridan (Buxoro, Samarqand, Nasaf, Marv, Balx, Farg'ona, Shosh va h.k.) chiqqan olimlarning qamrab olinishi, mintaqada yagona va yaxlit «Movarounnahr fiqh maktabi» mavjud bo'lganini tasdiqladi.

¹ kalom ilmi olimi.

² ustoz-shogirdlik silsilasi.

Taqiyuddin Hanafiyning Abdulqodir Qurashiy va Somoniy asarlaridan foydalanish mahorati aniqlandi. Ushbu asar nafaqat biografiyalarni jamlagan, balki yo'qolib ketgan ko'plab boshqa manbalardan (masalan, Idrisiyning «Tarixi Samarqand» asari, Mustag'firiyning «Tarixi Nasaf» asari) qimmatli parchalarni bizgacha yetkazib kelgan.

Pazdaviylar (243-b.), Halvoniylar (230-b.) va Mahbubiylar (220-b.) misolida Movarounnahrda ilmning avloddan-avlodga o'tishi va oilaviy ilmiy maktablarning mavqei naqadar baland bo'lgani aniqlandi.

Olimlar tomonidan yaratilgan «usul», «furu'», «sharh», «manzuma» va «musnad» kabi asar turlari tahlili shuni ko'rsatdiki, Movarounnahrlik faqihlar hanafiy huquqini tizimlashtirish va uni soddaroq shaklda (nazm va qisqa sharhlar orqali) xalqqa yetkazishda peshqadam bo'lishgan.

Majd Nasafiy va Ibrohim So'ig' kabi olimlarning hayoti va o'limi misolida, o'sha davr ulomalarining o'z ilmiy va diniy e'tiqodlari yo'lida siyosiy bosim va jismoniy xavflardan qo'rqmasdan faoliyat yuritganlari isbotlandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Taqiyuddin Hanafiyning «Tabaqot as-saniyya» asari Movarounnahr ulomalarining islom sivilizatsiyasi tarixidagi beqiyos rolini yoritib beruvchi manbadir. Asarning tizimli tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaq faqihlari nafaqat Abu Hanifa ta'limotini saqlab qolganlar, balki uni mahalliy sharoitlarga moslashtirib, yangi huquqiy normalar va asarlar bilan boyitganlar.

Birinchidan, Movarounnahr fiqh maktabi o'z davrida islom olamining intellektual mayog'i vazifasini bajargan. Buxoro va Samarqanddan yetishib chiqqan faqihlar Bag'dod va Nishopur kabi markazlarda huquqiy mezonlarni belgilab berishgan.

Ikkinchidan, olimlarning kasb-hunar (masalan, Abrisamiy – ipakchi, So'ig' – zargar) bilan shug'ullanib, ayni paytda yuksak ilmiy darajaga yetgani, Movarounnahrda ilm va amaliyotning uyg'unligini ta'minlagan. Bu esa islomiy jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishiga xizmat qilgan.

Uchinchidan, maqolada ko'rib chiqilgan buxorolik va boshqa hudud vakillarining hayoti bugungi kundagi huquqiy madaniyat va diniy bag'rikenglikni o'rganishda muhim namuna bo'la oladi.

Kelajakda ushbu asarni boshqa tabaqot kitoblari bilan qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, asarda zikr

etilgan, lekin hanuz qo'lyozma holida saqlanayotgan asarlarni topib, ilmiy iste'molga kiritish Movarounnahr tarixini o'rganishda yangi ufqlarni ochib beradi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Imom Hokim Naysoburiy. Tarixi Naysobur. 2006. Bayrut: Dar al-bashaoir al-islamiyya.
2. Kamaliddinov Sh.S. Kitab al-ansab Abu Sa'da as-Sam'ani kak istochnik po istorii kul'tury Sredney Azii. 1993. Tashkent: Fan.
3. Komilov M. Movarounnahrda fiqh ilmining rivoji va faqih Alouddin as-Samarqandiy. 2006. Toshkent: Istiqol.
4. Muminov A.K. Rol' uchenykh Maverannaxra v razviti xanafitskogo mazhaba. 2003. Tashkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.
5. Muminov A.K. Xanafitskiy mazhab v istorii Sentral'noy Azii. 2015. Almaty. Qazaq entsiklopediyasy.
6. Muhiyiddin Abdulqodir Qurashiy. Al-Javohir al-muziyya fi tabaqot al-hanafiyya. 1993. Qohira: Hijr.
7. Taqiyuddin ibn Abdulqodir Hanafi. Tabaqot as-saniyya fi tarajim al-hanafiyya. 1983. J.I. Ar-riyyad: Dor ar-rifai.
8. Taqiyuddin ibn Abdulqodir Hanafi. Tabaqot as-saniyya fi tarajim al-hanafiyya. 1983. J.II. Ar-riyyad: Dor ar-rifai.
9. Taqiyuddin ibn Abdulqodir Hanafi. Tabaqot as-saniyya fi tarajim al-hanafiyya. 1983. J.III. Ar-riyyad: Dor ar-rifai.
10. Taqiyuddin ibn Abdulqodir Hanafi. Tabaqot as-saniyya fi tarajim al-hanafiyya. 1983. J.IV. Ar-riyyad: Dor ar-rifai.
11. Xatib Bag'dodiy. Tarix al-Bag'dod. 2001. Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya.
12. O'rta asr sharq allomalari va mutafakkirlari entsiklopediyasi. 2016. Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti.
7. Taqiyuddin ibn Abdulqodir Hanafi. Tabaqat al-Saniyya fi Tarajim al-Hanafiyya. 1983. Vol. I. Riyadh: Dar ar-Rifai.
8. Taqiyuddin ibn Abdulqodir Hanafi. Tabaqat al-Saniyya fi Tarajim al-Hanafiyya. 1983. Vol. II. Riyadh: Dar ar-Rifai.
9. Taqiyuddin ibn Abdulqodir Hanafi. Tabaqat al-Saniyya fi Tarajim al-Hanafiyya. 1983. Vol. III. Riyadh: Dar ar-Rifai.
10. Taqiyuddin ibn Abdulqodir Hanafi. Tabaqat al-Saniyya fi Tarajim al-Hanafiyya. 1983. Vol. IV. Riyadh: Dar ar-Rifai.
11. Khatib Baghdadi. Tarikh al-Baghdad (History of Baghdad). 2001. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
12. Encyclopedia of Medieval Eastern Scholars and Thinkers. 2016. Samarkand: Imam Bukhari International Center Publishing House.
- Imom Hokim Naysoburiy. Tarikh al-Naysabur (History of Nishapur). 2006. Beirut: Dar al-Bashair al-Islamiyya.

REFERENCES

1. Imom Hokim Naysoburiy. Tarikh al-Naysabur (History of Nishapur). 2006. Beirut: Dar al-Bashair al-Islamiyya.
2. Kamaliddinov, Sh.S. Kitab al-Ansab Abu Sa'da al-Sam'ani as a Source for the Cultural History of Central Asia. 1993. Tashkent: Fan.
3. Komilov, M. Development of Fiqh in Mawarannahr and Faqih Alauddin al-Samarqandi. 2006. Tashkent: Istiqol.
4. Muminov, A.K. The Role of Scholars of Mawarannahr in the Development of the Hanafi Madhhab. 2003. Tashkent: Tashkent Islamic University Publishing and Printing Association.
5. Muminov, A.K. Hanafi Madhhab in the History of Central Asia. 2015. Almaty: Qazaq Encyclopedia.
6. Muhiyiddin Abdulqodir Qurashiy. Al-Jawahir al-Mudiyya fi Tabaqat al-Hanafiyya. 1993. Cairo: Hijr.

